

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrazoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farhod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna SamDu IS instituti professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Nomozova Qumri isoyevna Geologiya fanlari universiteti "Iqtisodiy geologiya" kafedrasini dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich , professor, Zaynutdinova Umida Djalalovna , dotsent	
O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda.....	13
O'sman Mesten , Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari	
O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan	
qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	15
Akkulov Abdulaziz Uralboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar.....	19
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li , doktorant	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni.....	26
Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi , assistent-o'qituvchi	
Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari.....	29
Kadirov Abdumalik Matkarimovich	
Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni	
rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	36
Mirzayev Q. J. , i.f.d., professor; Jonuzokov M. K. , assistent o'qituvchi	
"Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari.....	40
E. I. Nosirov , i.f.n., dotsent	
Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	46
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna , PhD	
Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammolari.....	51
Islomova Dilrabo Salomovna , kafedra assistenti	
Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing	
samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari.....	55
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich , PhD, dotsent	
Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali	
foydalanish asosida ekoturizm klasterlarini shakllantirish.....	62
Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi , i.f.b.f.d.; Axrarov Farxod Baxriddinovich , i. f. n.; Xo'jamov Bobur , tadqiqotchi	
Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o'rni.....	68
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri.....	72
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich , i.f.d., professor	
Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending	
to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan.....	79
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna , PhD, docent; Maqsudov Orif Shakirovich , assistant	
Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash.....	84
Madraximova Gulasal , dotsent; Safarova Nasiba , magistrant	
Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari.....	90
Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich , Todjimamatova Mashhura Erkinovna ;	
Nurmatova Hilola A'zamovna ; Berdieva Aziza G'anisher qizi ; Egamberdieva Oydin Abror qizi	
Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade.....	97
Nurbek Khalimjonov , assistant	
Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan.....	102
Khusniddin Egamnazarov	
Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis.....	106
Sarvar Mamasoliyev ; Shodiyor Toxirov	
O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma.....	112
Xalimova F. N. , katta o'qituvchi	
Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni	
O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari.....	115
Matkarimov Jahongir Shamuratovich , mustaqil tadqiqotchi	
Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari.....	122
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , kafedra dotsenti	
Turizm sektorida milliy hunarmadchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	126
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna , kafedra assistenti	
Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана.....	132
Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна , преподаватель	
Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash.....	139
Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi , PhD	



Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	144
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , doktorant	
O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari	147
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich , dotsent	
An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan	150
Cao Gang , PhD Candidate	
"Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish.....	160
Musyeva Shoirazimovna , kafedra professori	
Mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni.....	164
Ibragimov G'ayrat Ablalulovich , PhD; Shukurova Nilufar Qahramonova , tadqiqotchi;	
Umirov Islombek Furkatovich , tadqiqotchi; Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li , tadqiqotchi	
MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi	169
Abidov Abdujabbor Abduxamidovich , t. f.n., dotsent	
Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlikka ta'siri	179
Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich , iqtisodiyot fanlari doktori, professor	
O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari	186
Burxanov Aktram Usmanovich , i.f.d., prof.; Xudoyqulov Xurshid Xurramovich , i.f.d., prof.	
O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga oid	191
Ruzibayev Jahongir Nodirovich	
O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili.....	194
Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Raqamli texnologiyalar orkali turizm industriyasini rivojlantirish usullari	200
R. P. Zarikeyev , mustaqil doktorant	
Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti	206
Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich , doktorant	
Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar	
va ular hisobining amaldagi holati	211
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna , doktorant	
O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili.....	216
Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi , doktorant	
Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari	221
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , doktorant	
Functions of Management in Education and Its Significance	231
Akhatova Shakhnoza Akram kizi , teacher	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha	
usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari	235
Ametov Quvondik Mamatjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari.....	238
Amirzoda Hamrayev , katta o'qituvchi	
Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari	244
Amonov Alisher , o'qituvchi	
Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari.....	248
Bobirjon Aktamov , katta o'qituvchi	
Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari	253
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li , katta o'qituvchi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi	
va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli	
yo'nalishlari	259
Djurayeva Iroda Bahrom qizi , doktorant, o'qituvchi	
Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni	265
Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi , PhD, katta o'qituvchi	
Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari...	269
G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich , doktorant	
Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili	275
Jumanova Zilola To'ychiyevna , doktorant	
Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari	280
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li , kafedra o'qituvchisi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni	
amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	284
M. Samiyeva , kafedra assisenti	
Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System	288
Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich , independent researcher	
O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari.....	294
Nazarova Muslima Nazarovna , PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi	



Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	301
Odilov Dilshodjon Tulqinovich	
O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish	307
Xoliqov Tolibjon Luptullaevich , kafedra assistenti	
Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash.....	311
Radjabova Gavxar Umarovna , kafedra dotsenti	
Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice	316
Ravshan Aliyevich Allayorov , Associate Professor	
An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar	319
Abrorov Sirojiddin , PhD; Bunyod Usmonov , PhD	
Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish.....	325
Samiyeva Gulnoza Toxirovna , PhD, i.f.f.d.	
Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish.....	332
Sh. Sh. Ziyayeva , katta o'qituvchi	
Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash	337
Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан.....	340
Усманов Фаррух Обитжонович , научный сотрудник кафедры	
An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari	348
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich , stajor tadqiqotchi	
Dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish	355
Xamrayeva Sayyora Nasimovna , kafedra professori; Ochilova Nargiza Akramovna , doktorant	
Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari	360
Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li , doktorant; Raxmatov Ziyodullo Nosirovich , dotsent	
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari.....	363
Yusupov M. S. , PhD	
Мировые финансовые центры точки роста экономики	369
Абдуллаев Анвар Фархадович , PhD., доцент кафедры	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik	375
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , PhD	
Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике.....	379
Бердикулова Ирода Райимкуловна , старший преподаватель; Усманов Шахзод Шохрухович , студент	
Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari.....	390
G'aniyev Shaxriddin Vohidovich , i. f. d., Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , PhD	
Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli	395
G'ofurov Azizbek Umarjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari.....	400
J. Y. Isakov , i.f.d, professor	
Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari.....	405
A. Abduvohidov , i. f. d., professor	
Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish.....	407
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich , PhD	
Актуальная ситуация в сегменте теневой экономики в Республике Узбекистан	412
Кошанов Абдимурат , независимый исследователь	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	416
Qurbonova Shaxrinoz , doktorant	
Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari.....	420
Qilicheva Kamola Muzaffarovna , mustaqil tadqiqotchi	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	425
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich , erkin izlanuvchi	
Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish	433
Maxmudov A. M.	
Цифровизация бухгалтерского учета.....	439
Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи , самостоятельный соискатель	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish.....	445
Nasrova Kamola Ravshanovna , PhD	
Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.....	451
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент; Нуриллаев Шердил Жамолiddin угли , магистр	



Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	456
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish	460
Berdiyeva Dilfuza Axatovna , PhD, dotsent	
Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики	466
Хасанхонова Нодира Исаметдиновна , PhD	
Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi.....	471
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna , iqtisod fanlari nomzodi	
Davlat-xususiy loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari	481
Suleymanov Farrux Raximjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО "Узавтосаноат"	487
Туйчиев Комилжон Лазизович , доцент кафедры	
Экономическая сущность и важность повышения эффективности	
производства каракулеводческой продукции.....	493
Тулкин Хайтмуродович Фармонов , профессор; Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич , докторант	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	499
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , PhD, kafedra dotsenti	
Инновационные методы энергосбережения как способ повышения	
конкурентоспособности предприятия	503
Хамдамова Гавхар Абсаматовна , к.э.н., профессор	
Hudud sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili	508
Shoxujayeva Zebo Safoyevna , i. f.n., professor, katta ilmiy xodim	
Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini	513
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi , kafedra dotsenti i.f.d.	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish.....	521
Yuldashev Furqat Nurilloevich , doktorant	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari	524
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich , PhD; Akramov G'ayrat Otabek o'g'li , talaba	
An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth	530
Fayzieva Nargiza Rabimovna , PhD	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini	537
Qurbonov Jasurbek Pozilovich , kafedra dotsenti	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli	540
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD, kafedra dotsenti	
O'zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ	
boshqaruvining baholash usullarini tahlili.....	544
Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'rta Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi.....	548
Shaymanova Nigora Yusupovna , doktorant	
Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi.....	552
Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li , doktorant	
O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari.....	559
Shavqiyev Erkin , i. f. n.	
"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, dastaklari va uning o'ziga xos tamoyillari	565
Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich , kafedra dotsenti	
Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari	571
Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich , i.f.n., kafedra dotsenti	
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.....	576
S. Qulmatova , PhD, dotsent	
Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms	581
Kurpayanidi Konstantin Ivanovich , Professor	
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash	586
Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchi	
Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari	593
Narmanov Ulug'bek Abdugapparovich , PhD; Maqsudov Azamat Maqsud o'g'li	
Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o'рни va uning tamoyillarini qo'llash istiqbollari.....	598
Usmonova Dilfuza Ilhkomovna , kafedra dotsenti	
Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё.....	602
Абдишукуров Шерзод Шавкат угли , научный сотрудник	
Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish.....	608
Artikov Kurbonazar Amonovich , mustaqil ilmiy tadqiqotchi	
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati.....	614
Asamxodjaeva Shoirra Shukurullaevna , katta o'qituvchi	



Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения.....	618
Ачилова Ширин Шавкат кизи , старший преподаватель	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish	622
Bazarova Nigora Ravshanovna , kafedra dotsenti	
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari	627
Kenjayev Ilhom G'iyozovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes	632
Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich , Scientific researcher	
Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari	637
Mirpulatova Luiza Mansurovna , doktorant	
Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari.....	642
Norov Akmal Ruzimamatovich , DSc, kafedra professori	
Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari	649
Norova Nozima Nabiyevna , katta o'qituvchi	
Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari	657
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida).....	661
Sayfullo Mirzoyev	
International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector	666
Solijonova Muxlisa Azamatovna	
Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.....	668
Tursunov Jaxongir Pulatovich , DSc	
Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari.....	673
Xalikov Ulug'bek Rustamovich , PhD	
Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati.....	678
Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova , mustaqil izlanuvchisi	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari... 683	
Shaniyazova Zamira Orabayevna , PhD	
Тенденции развития жилищного строительства.....	688
Алиева Зилола Маматвалиевна , доцент кафедры	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari.....	692
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi.....	698
Xusanov Nishonboy Abdusattarovich , filologiya fanlari doktori, professor	
Спиртные напитки - вред здоровью	702
Кариева Халима Икромжоновна , старший преподаватель кафедры	
Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas	706
Munisa Alimova	
Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish	709
Isaqova Zebo Murodovna , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Asamxodjaeva Shoira Shukurullaevna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirishning mohiyati o'rganilgan hamda bu investitsiyalarning innovatsion iqtisodiyot sharoitida mamlakat taraqqiyotiga ta'siri tadqiq etilgan. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiya kiritishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan. Ish so'ngida mavzuga doir xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, investitsiya, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, samaradorlik, daromad, xarajat, mehnat unumdorligi, sarmoya, ilm-fan, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, innovatsiya resurslari, innovatsiya natijalari.

Abstract: The article discusses the essence of investing in human capital and examines the impact of these investments on the development of the country in the context of the innovative economy. The main directions of investment in human capital are also analyzed. At the end of the work, conclusions and recommendations on the topic were formed.

Key words: human capital, investments, economic growth, innovations, efficiency, income, expense, labor productivity, capital, science, research and development, innovation resources, innovation results.

Аннотация: В статье рассматривается сущность инвестиций в человеческий капитал и исследуется влияние этих инвестиций на развитие страны в условиях инновационной экономики. Также проанализированы основные направления инвестиций в человеческий капитал. По итогам работы были сформированы выводы и рекомендации по теме.

Ключевые слова: человеческий капитал, инвестиции, экономический рост, инновации, эффективность, доход, расход, производительность труда, капитал, наука, исследования и разработки, инновационные ресурсы, инновационные результаты.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot mamlakatni ilmiy-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilashda innovatsiyalar oqimiga asoslanadi. Mazkur sharoitda xodimlar, ularning bilimi va tajribasi moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning muhim omilidir. Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga globallashuvi sharoitida yangi axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish, iqtisodiyotning yangi sohalarini rivojlantirish zamon talabiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ham yildan-yilga ortib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli bugungi kunda inson kapitaliga investitsiya kiritishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish davr talabidir. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi" ^[1]. Texnologik jarayonlarning muntazam yangilanib borishi, innovatsion rivojlanish va intensiv iqtisodiy o'sish omillarining tobora oshib borayotganligi mazkur jarayonlarga tezkor moslasha oladigan, malakali kadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizni 2030-yilgacha rivojlantirishning huquqiy asosi hisoblangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida "...inson kapitalini rivojlantirish" eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan ^[2]. Mazkur holat respublikamizda inson kapitalini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi va bu maqsadlarda salmoqli investitsiyalar qilinishidan dalolat beradi.



Inson kapitalidan samarali foydalanish tashkilotning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, uning faoliyati samaradorligini oshiradi. Inson kapitali to'g'ridan-to'g'ri kapital sifatida to'g'ri ishlatilsa, qo'shimcha foyda keltiradigan maxsus resurs shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida yuzaga chiqishi shart ekanligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikdagi inson kapitali ulushi 80 foizgachani tashkil etadi. Shu jihatdan, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va unga kiritilgan investitsiyalar borasida bir qator olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. XVIII asrda zamonaviy iqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri Adam Smit inson kapitalining ahamiyati haqida o'zining "Aholi daromadlarining tabiati va sabablarini o'rganish" asarida shunday yozgan edi: uning fikricha, asosiy kapital nafaqat mehnat mashinalari va asboblari, foydali binolar va yerdan, balki "jamiyatning barcha a'zolari yoki aholining orttirilgan va foydali qobiliyatlaridan ham iborat". Bu qobiliyatlar nafaqat ularni egallagan shaxsga tegishli, balki shu bilan birga shaxs mansub bo'lgan butun jamiyat boyligining bir qismiga aylanadi. "Ishchining epchilligi va mahoratini mehnatni qisqartiruvchi yoki yengillashtiruvchi ishlab chiqarishdagi mashina va uskunalar nuqtayi nazaridan qarash mumkin. Ular ham ma'lum xarajatlarni talab qilsada, foyda bilan birga bu xarajatlarni qoplaydilar ^[3].

1950-1960-yillarda iqtisodchilar mehnat bozoriga yangicha nazar tashlagach, inson kapitalini tadqiq qilishda inqilob yuz berdi, deb yozadi inqilob hammualliflaridan biri Geri Bekker. Daromaddagi farqlar, birinchi navbatda, ishchilar "yaxshi" yoki "yomon" ishlarni bajarayotganini aks ettiradi deb taxmin qilish o'rniga, inson kapitali yondashuvi daromadlar birinchi navbatda ishchilarning o'z malakalari va bilimlariga qancha sarmoya kiritganligini o'lchaydi, deb faraz qildi. Ushbu fikrga ko'ra, daromad ta'lim va o'qitishga qo'yilgan mablag'lar miqdori bilan ortadi. Ushbu talqinda "yaxshi ish o'rinlari" inson kapitaliga katta miqdorda sarmoya kiritgan ishchilar tomonidan to'ldiriladigan ishlardir, deb ta'kidladi ^[4].

Inson kapitaliga inqilobiy qarashlar, G.Bekkerdan tashqari, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlaridan biri Teodor Shults va mehnat iqtisodiyoti asoschilaridan biri J.Minserning tadqiqotlarida ham asoslandi. Shunday qilib, Shultsning inson kapitali haqidagi ishidan oldin, iqtisodiy rivojlanish adabiyotlarida asosiy e'tibor jismoniy kapitalni to'plashga qaratilgan edi. Biroq, Shults tadqiqot e'tiborini ko'nikma va bilimlarga sarmoya kiritishga qaratdi, chunki uning fikricha, ular iqtisodiy rivojlanish uchun juda muhim edi ^[5].

Shaxsiy inson kapitalining to'planishi individual iqtisodiy o'sishga (daromadning o'sishiga) olib kelganidek, xuddi shu narsa tegishli ijtimoiy yoki milliy agregatlar bilan sodir bo'ladi, deb yozgan Minser. U inson kapitalining o'sishi iqtisodiy o'sishning ham sharti, ham natijasi ekanligini ta'kidladi. Inson kapitali nafaqat mavjud bilimlarni uzatishni, balki innovatsiyalar va texnik o'zgarishlar manbai bo'lib xizmat qiladigan, ishlab chiqarishning barcha omillarini harakatga keltiradigan va global iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yangi bilimlarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Minser shuningdek, ish haqining olingan ma'lumot va ish tajribasiga bog'liqligini tahlil qildi. Bu munosabat shuni ko'rsatadiki, inson yoshi ulg'aygan sayin u o'z daromadini (ish haqini) oshirishga yordam beradigan bilimlarni to'playdi, ammo pensiyaga chiqish yaqinlashganda, o'qitishga investitsiyalar kamayadi va ulardan olinadigan daromad kamayadi. Ta'lim davomiyligi va daromadning nisbiy darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi tenglama Minser nomi bilan atalgan bo'lib, iqtisodiyotda eng ko'p ishlatiladiganlardan tenglamalardan biriga aylangan ^[6].

Sun'iy intellektning joriy etish sharoitlarida kapitalga tayangan iqtisodiyot o'rnini "iste'dodlar iqtisodiyoti" egallay boshlashini hisobga olsak, aynan inson kapitalini raqamli rivojlantirishga ustuvorlik berilishining zarurati aydinlashadi. Bunday sharoitda mehnatga layoqatli aholini, birinchi navbatda, yoshlarni yangi texnologik davrda yashash va mehnat qilishga tayyorlash hamda raqamli ko'nikmalarini doimiy rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi ^[7].

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va sun'iy intellektning joriy etilishi raqamli ko'nikmalarni shakllantirishga turtki berishi va natijada inson kapitalini raqamli rivojlantirish salohiyatini oshirishi bilan bog'liq. Inson kapitalining potentsial imkoniyatlari, birinchi navbatda, inson hayotining har bir bosqichlari(oila instituti, ijtimoiy va kasbiy institutlar)da inson kapitalini rivojlantirish shartlarini belgilaydigan institutsional muhitga bog'liq ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ilm-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida inson kapitali mamlakat kelajagini belgilaydigan zaruriy omilga aylanib bormoqda. Inson kapitali barqaror iqtisodiy o'sishning asosi va innovatsiyalarni harakatlantiruvchi kuchdir.

Inson kapitaliga investitsiyalar – bu alohida shaxslarning qobiliyatini, uning malakasini oshirishga va rivojlantirishga kiritilgan sarmoya bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad mehnat unumdorligini oshirishdir ^[12].

Inson kapitaliga investitsiyalar shaxsning bilimi, malakasi, ta'limi va sog'lig'ini rivojlantirish hamda yaxshilashga yordam berish uchun vaqt, kuch va moliyaviy vositalarni o'z ichiga olgan resurslarni strategik taqsimlashni anglatadi. Ushbu konsepsiya shaxslarning o'ziga xos qiymatini tan oladi va ularning o'sishi va farovonligiga investitsiya qilish natijasida kelib chiqadigan uzoq muddatli foydani alohida va jamiyat darajasida ta'kidlaydi.

Inson kapitaliga investitsiyalash yo'nalishlari:					
ta'lim va tarbiya	tadqiqot va innovatsiyalar	bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish	inklyuzivlikni rag'batlantirish	sog'liqni saqlash	farovon turmush

1-rasm: Inson kapitaliga investitsiya kiritishning asosiy yo'nalishlari*

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ta'lim odamlarni barkamol va mas'uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalash, qadriyatlarni tan olish va o'z hayotini baholashga yordam berish orqali ularning madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim, shuningdek, odamlarning ishlash va shaxsiy ishlarini boshqarish uchun foydalanadigan qobiliyatlarini yaxshilashi mumkin va bunday yaxshilanishlar milliy daromadni oshirishga yordam beradi. Zamonaviy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri inson kapitalining o'sishidir, chunki odamlarga katta sarmoya kiritmasdan muvaffaqiyatli qishloq xo'jaligi va rivojlangan sanoatga ega bo'lish mumkin emas.

Bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish inson kapitaliga investitsiyalarning yana bir muhim sohasidir. Albatta, rasmiy ta'lim inson kapitaliga sarmoya kiritishning yagona yo'li emas. Ishchilar, shuningdek, maktabdan tashqarida, ayniqsa ish joyida o'rganadilar va o'qitiladi. Hatto oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari ham o'qishni tugatganlarida aksariyat hollarda mehnat bozoriga to'liq tayyor bo'lmaydilar, shu sababli rasmiy va norasmiy o'quv dasturlari orqali o'z ish joylariga moslashtirilishi kerak. Ish joyida o'qitish vaqti oddiy ishlarda bir necha soat, muhandislik kabi murakkab vazifalarni bajarishda bir necha yilni tashkil etadi. Tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ish joyida o'qitish ishchilarning ishda ko'proq tajribaga ega bo'lishi natijasida oladigan daromadlarining katta miqdorda o'sishiga zamin yaratadi. Kolumbiya universiteti iqtisodchisi J.Minserning hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, ish joyida o'qitishga jami investitsiyalar yiliga 200 milliard dollardan ko'proq yoki YalMning taxminan 2 foizini tashkil qilishi mumkin.

Salomatlik va farovonlikka sarmoya kiritish ham inson kapitalini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish, profilaktika choralari va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi va kasallik tufayli yo'qolgan ish kunlari sonini kamaytiradi. Sog'liqning qoniqsiz holati unumdorlikni pasaytiradi, chunki jismoniy jihatdan zaif va bemor ishchilar o'z qobiliyatlarini to'liq amalga oshira olmaydilar, shu sababli tashkilotlar o'z xodimlari sog'ligiga investitsiya kiritadilar.

Tadqiqot va innovatsiya sohalari ham inson kapitaliga sarmoya kiritishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga (R&D) investitsiyalar innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni rag'batlantiradi, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ilmiy-tadqiqot institutlarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy kashfiyotlar va innovatsiyalarni rag'batlantirish inson kapitalini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Ilm-fan rivojlanishi jarayonida nafaqat intellektual yangiliklar hayotga tadbiq etiladi, balki bunda ishtirok etayotgan insonlarning yangi imkoniyatlari, qirralari ochiladi. Axborot jamiyatida ilm-fan inson kapitalini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy va iqtisodiy inklyuzivlikni rag'batlantirish inson kapitaliga sarmoya kiritishning muhim jihati hisoblanadi. Jinsi, etnik kelib chiqishi va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga harakat qilish kerak. Inklyuziv siyosat va dasturlar barcha shaxslarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va jamiyatga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Inson kapitali - bu insonlarning o'z hayoti davomida sarmoya kiritadigan va to'playdigan, jamiyatga hissa qo'shadigan a'zo sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan bilimi, ko'nikmasi va sog'lig'idir. Ovqatlanish va tibbiy yordam sifatini oshirish, sifatli ta'limni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va malaka oshirish orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'ta qashshoqlikka barham berish va ijtimoiy jihatdan yanada yaxlit jamiyat barpo etishning kalitidir ^[13].



Inson kapitaliga sarmoya kiritish hukumatlar, korxonalar va jismoniy shaxslarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi. Hukumatlar siyosatni ishlab chiqadi, ta'lim va sog'liqni saqlash uchun mablag' ajratadi va malaka oshirish uchun qulay muhit yaratadi. Korxonalar malakali va g'ayratli xodimlar muvaffaqiyatga hissa qo'shishini tan olib, xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritadilar. Shuningdek, shaxslar o'z inson kapitaliga o'z-o'zini boshqarish, uzluksiz ta'lim va faol shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish orqali sarmoya kiritishlari mumkin. Korxona va davlat iqtisodiyotini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar miqdoriga, shuningdek, ushbu mablag'larning o'z vaqtida ajratilishiga bog'liq. Ushbu turdagi investitsiyalar hajmi jihatidan sezilarli, uzoq muddatli va ajralmas iqtisodiy hamda ijtimoiy samara keltiradi. Shu sababli bunday investitsiyalar inson, korxona va butun jamiyat nuqtayi nazaridan eng foydali hisoblanadi.

Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali innovatsiya resurslarining sifatini oshirish, so'ngra ulardan keladigan samarani o'sishiga umid qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati bo'yicha bir qator xulosa va tavsiyalar shakllantirildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Investitsiyalarni inson kapitaliga yo'naltirish orqali aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlash mumkin.
2. Inson kapitaliga investitsiyalar samarasining o'sishi milliy daromadning o'sishiga, bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi.
3. Inson kapitaliga investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va individual farovonlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.
4. Shaxslarning qadr-qimmatini tan olish va ularning rivojlanishiga faol sarmoya kiritish orqali jamiyatlar yanada farovon va adolatli kelajak yaratishi mumkin.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'z vaqtida ajratilgan mablag'lar miqdoriga bog'liq.
6. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida insonlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, har taraflama raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga investitsiyalarning yo'naltirilishi mamlakatga uzoq yillar davomida foyda keltiradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023. (<https://president.uz/uz/lists/view/6679>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. (<https://lex.uz/docs/5841063#584387>).
3. Adam Smit. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. Per. s angl., M., 1962.
4. Becker, Gary S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 2d ed. New York: Columbia University Press for NBER, 1975.
5. Theodore W. Schultz. Investing in people: Schooling in low-income countries. Economics of Education Review. Volume 8, Issue 3, 1989, 219-223-p. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/0272775782900012>).
6. Mincer, Jacob. "Investment in U.S. Education and Training." NBER Working Paper no. 4844. National Bureau of Economic Research, Cambridge, Mass., 1994.
7. Абдурахманов К.Х. Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта. экономика труда. Том 10, Номер 2, Февраль 2023. Russian Journal of Labor Economics ISSN 2410-1613
8. G'oyibnazarov S.B. Inson kapitalini raqamli rivojlantirish drayverlarining institutsional modelini takomillashtirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. №4. 2023 yil. (<https://doi.org/10.47390/SP1342V-3SI4Y2023N23>).
9. Asamxodjaeva Sh. Sh. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №1, 2023-yil, 24(1), 102–106. (https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a14)
10. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions#2>
11. <https://www.globalinnovationindex.org/Home>
12. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_2000_2022/uz.pdf

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

